**Turkiy tillar — hozirgi va qad. turkiy xalqlar va elatlarning tillari. Asosan, O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Rossiya Federatsiyam, XXR, Afg‘oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Makedoniya, Albaniya, AQSH, Saudiya Arabistoni va boshqa bir kancha mamlakatlarda tarqalgan. O‘tgan asr oxiridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Turkiy tillarda so‘zlashuvchilarning umumiy soni 130 mln. kishidan ortiq.**

## Umumiy ma’lumot Tahrirlash

**Ba’zi olimlar Turkiy tillarni mo‘g‘ul tillari hamda tungusmanjur tillari bilan birga qo‘shib, oltoy tillari oilasiga birlashtiradilar. Ye.D.Polivanov, G.Y. Ramstedt kabi tilshunoslarning fikricha, ushbu tillar oilasi koreys va yapon tillarini qo‘shish hisobiga kengayishi mumkin. Oltoy nazariyasiga ko‘ra, Turkiy**

**tillarning tarixi oltoy tillari bir til bo‘lib tashkil topgan qad. zamondan — oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobotili (asos til) dastlab 2 ga — tungusmanjur va turkmo‘g‘ul tillariga, so‘ngra turkmo‘g‘ul tili ham 2 ga — turk va mo‘g‘ul tillariga ajralgan. Lekin Turkiy tillarning oltoy tillariga genetik aloqadorligi haqidagi masala hamon faraz darajasida krlmoqda.**

**Turkiy tillar deganda, Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq bo‘ylab cho‘zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo‘miq, no‘g‘ay, qorachoybolqor, tofalar, chuvash kabi 25 dan ortiq til tushuniladi. Turkiy tillar hozirgi tarqalish geografiyasiga ko‘ra,**

**quyidagi mintaqalarga ajratiladi: O‘rta va Jan.**

**Sharqiy Osiyo, Jan. va G‘arbiy Sibir, VolgaKama havzasi, Shim. Kavkaz, Zakavkazye va Qora dengiz bo‘yi. Turkiy tillarning genetik, lisoniy xususiyatlar jihatidan o‘zaro munosabati masalasiga qiziqish juda qad.dan davom etib keladi. Turkiy tillarni birinchi marta tasnif qilgan olim Maxmud Koshg‘ariydir. Turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish 19-asr oxiri va 20-asrda qayta avj oldi va hozirgigacha ko‘plab tasniflar vujudga keldi (rus olimlari I.N.Berezin, V.V.Radlov, F.Ye.Korsh, A.N.Samoylovich, V.A.Bogoroditskiy, N.A.Baskakov, B.A.Serebrennikov, turk olimi R.R.Arat, fin olimlari G. Y. Ramstedt va A.M.O.Ryasyanen, nemis olimlari I.Bensing va K.G. Mengeslarning tasniflari). Bu tasniflar metodi, oldiga qo‘ygan maqsadi nuqtai nazaridan**

**xilmaxildir. Shuning uchun bu tasniflarning birida biron bir guruhga mansub deb hisoblangan til ikkinchisida boshqa bir guruhga tushib qolishi mumkin. Turkiy tillarni tasnif qilishning o‘ziga xos qiyin tomonlari bor. Bu qiyinchilik, avvalo, Turkiy tillarning o‘zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan yaqinligidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, alohida olingan har bir turkiy xalqning tarkib topishida turli xil qabilalarning ishtirok etganligi va bir qabila bir paytning o‘zida bir necha turkiy xalqning shakllanishida ishtirok etganligi bilan izohlanadi. Mas., V.A.Bogoroditskiy o‘z tasnifida Turkiy tillarning geografik tarqalish xususiyatini asos qilib, ularni 7 guruhga ajratadi: shim.sharqiy (saxayoqut, karagas va tuva tillari); xakas (mintaqadagi xakas aholining shevalari); o l toy (oltoy va teleut tillari, bir qancha lahjalar); g‘arbiy sibir (sibir tatarlariningbarcha laxjalari);**

**volgabo‘yiuraloldi (tatar va boshqird tillari); o‘rta osiyo (uzbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq tillari); jan.g‘arbiy (turkman, ozarbayjon, qo‘miq, gagauz, turk tillari va chuvash tili). Bu tasnifda turkiy xalklar va tillarning tarixiy tarakane™ hisobga olinmagan, karaim, no‘g‘ay kabi tillar e’tibordan chetdan qolgan. V.V.Radlov tomonidan Turkiy tillar quyidagicha tasnif qilingan: sharqiy guruh (Oltoy, Ob, Yenisey turkiylari va Chulim tatarlarining til va laqjalari, karagas, xakas, shor va tuva tillari); g‘arbiy guruh (G‘arbiy Sibir tatarlarining lahjalari, qirg‘iz, qozoq, boshqird, tatar va qoraqalpoq tillari); o‘rta osiyo guruhi (o‘zbek va uyg‘ur tillari); jan. guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrimtatar tillari). Bu tasnifga Turkiy tillarning fonetik xususiyatlari asos qilib olingan bo‘lsada, ba’zi fonetik belgilar muayyan bir guruhga emas, bir necha guruh tillarga xos ekanligi seziladi. Boshqa tasniflar ham u yoki bu darajada**

**kamchiliklarga ega. Tasniflar orasida Turkiy tillarning ham til xususiyatlarini, ham tarixiy taraqqiyotini, ham genetik qarindoshligini atroflicha hisobga olgan hamda Turkiy tillarning barchasini tuliq qamrab olgan tasnif N.A.Baskakov tomonidan taklif etilgan va u kupchilik turkiyshunoslar tomonidan tan olingan.**

**Turkiy tillar oilasi uchun xos bulgan singarmonizm (hozirgi o‘zbek adabiy tili bundan mustasno), suz boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi, o‘zakning deyarli o‘zgarmasligi, gap bo‘laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar uni boshqa til oilalaridan farklab turadi. Turkiy tillarni bir til oilasiga birlashtiruvchi va boshqa til oilalaridan farklovchi xususiyatlaridan biri lug‘at tarkibining bir-biriga juda yaqinligi va grammatik qurilishining o‘xshashligidir. Shuning uchun g‘am chuvash va yoqutlardan boshqa hamma**

**turkiy xalklar vakillari o‘z ona tillarida gaplashganlarida bir-birini muayyan darajada tushuna oladi.**

**Turkiy tillar umumiy genetik va tipologik belgilarga ega: fonetikada yukrridagi belgilardan tashqari unli va undoshlar oppozitsiyasi mavjud. Hozirgi Turkiy tillarda unli va undosh tovushlar mik, dori bir xil emas. Unlilar miqdori ba’zi Turkiy tillarda (tuva, gagauz, chulimtatar tillarida) 20 dan ortiq bo‘lsa, ko‘pchiligida 8 ta (xoz. o‘zbek adabiy tilida 6 ta). Undosh tovushlar miqdorida esa bunchalik katta farq yo‘q. Maxsus adabiyotlarda undoshlar miqdori 20 dan kam kursatilmaganidek, 30 dan ortiqham qayd etilmaydi. Ba’zi Turkiy tillarda suz boshida jarangsiz undoshlar (k, p, t) ishlatilsa, boshqalarida ayni urinda jarangli undoshlar (g, b, d) qo‘llanadi; so‘z boshida sonor undoshlar (l, m, n, r) deyarli uchramaydi. Morfologiya**

**sohasida agglyutinatsiya shakl va so‘z yasalishining asosiy usuli hisoblanadi, grammatik jins turkumsi yuq, prefiks va old qo‘shimchalar mavjud emas (ko‘makchilar faol qo‘llanadi), bir turdagi turlanish va bir turdagi tuslanish mavjud; sintaksis sohasida gap bo‘laklari o‘zining muntazam joylashish tartibiga ega (aniqlovchi aniqlanmishdan, ega kesimdan oldin joylashadi), bog‘lovchilar deyarli yo‘q (ularning aksariyati arab va fors tillaridan o‘zlashgan), sifatdoshli, ravishdoshli tuzilmalar keng qo‘llanadi, ikki ot yoki otlashgan so‘zning birikuvidan hosil bo‘lgan va turkiy izofa deb ataluvchi aniklovchili so‘z birikmalari barcha Turkiy tillarda uchraydi. So‘z yasalishi, asosan, affiksatsiyadan iborat, shuningdek, so‘z hosil qilishning analitik va boshqa usullari ham bor.**

**Eng qad. turkiy yozma yodgorliklar (urxunenisey yozuvida) 7— 11-asrlarga mansub bo‘lib, ular, asosan, qabrtoshlar tarzida Shim. Mongoliya, Qirg‘izistonda, Yenisey daryosining yuqori qismi, Talas vodiysida va boshqa joylarda topilgan. Brahmi va sug‘d yo‘zuvlarida bitilgan qad. turkiy yodgorliklar ham uchraydi (Sharqiy Turkiston va O‘rta Osiyo). Keyinchalik uyg‘ur va arab alifbolari asosidagi turkiy yozuv sharqsa (Qashqar, O‘rta Osiyo, Oltin O‘rda hududi, Volgabo‘yida) va g‘arbda (saljuqiylar davlatida, Ozarbayjon, Turkiya va boshqa hududlarda) rivojlandi. Xitoyda yashovchi uyg‘urlar 11-asrdan hozirgigacha arab alifbosi asosidagi yozuvdan foydalanadilar. Qad. yozuv an’analariga ega bo‘lgan turkiy xalkdarning aksariyati (o‘zbek, uyg‘ur, turk, ozarbayjon, turkman, tatar, boshqird kabi) 20-asrning 20-yillarigacha arab alifbosi asosidagi yozuvga ega**

**bo‘lgan. Turk tili 1929 yildan lotin alifbosi asosidagi yozuvga o‘tgan.**

| Tillar | Yozilishi |
| --- | --- |
| O‘zbekcha | Bolalar maktabda tilimizni lotin alifbosi bilan / ila yozadi. |
| Turkcha | Çocuklar okulda dilimizi latin alfabesi ile yazıyor. |
| Gagauzcha | Uşaklar şkolada / okulda dilimizi latin alfavitindä yazêr. |
| Ozarcha | Uşaqlar məktəbdə dilimizi latin əlifbası ilə yazır. |
| Turkmancha | Çagalar mekdepde dilimizi latyn elipbiýi bile(n) ýazýar. |
| Uyg‘urcha | Balilar mektepte tilimizni latin elipbesi bilen yazidu. |
| Qozoqcha | Balalar mektepte tilimizdi latin alfavitimen jazadı. |
| No‘g‘oycha | Ballar mektepte tılımızdı latın alfabemen yazadılar. |
| Qirg‘izcha | Baldar mektepte tilibizdi latin alfaviti menen jazat<br>Baldar mektepte tilibizdi latın alfaviti menen jazat. |
| Tatarcha | Balalar mäktäpdä telebezne latin älifbası bilän / ilä yaza. |

| Tillar | Yozilishi |
|---|---|
| O‘zbekcha | Yangi yilingiz qutlug‘ bo‘lsin. |
| Turkcha | Yeni yılınız kutlu olsun. |
| Gagauzcha | Yeni yılınızı kutlerim. |
| Qrimcha | Sizni yanhı yıl bıla kutleymın. |
| Ozarcha (Ozarbayjon) | Yeni iliniz mübarək olsun. |
| Ozarcha (Eron) | Təzə iliniz mübarək olsun. |
| Iroq turkchasi (Iqoq) | Y’engi iliwiz mübarak olsun. |
| Turkmancha | Taze ýylynyz gutly bolsun. |
| Uyg‘urcha | Yengi yılıngızğa mübarek bolsun. |
| Qozoqcha | Janga jılıngız quttı bolsın |
| Qorachoy-Bolqorcha | Cangngı cılığızını alğışlayma. |
| No‘g‘aycha | Yana yılınız men. |
| Qoraqalpoqcha | Canga cılıngız kuttı bolsın. |

| | |
|---|---|
| Qirg‘izcha | Cangı cılıngız kuttu bolsun. |
| Tatarcha | Yaña yılıgız kotlı bulsın. |
| Qrimtatarcha | Yanı ılınız kaırlı (mubarek) olsun. |
| Maldo‘va-Ruminya Tatarchasi | Ceni cılınız kutlu bolsun. |
| Boshqircha | Һeşşe yaңi yil menən ҡotlayim. |
| Qo‘miqcha | Yangı yılıgız kutlu bolsun. |
| Xakascha | Naa çılnang alğıstapçam (-alkış) şirerni. |
| Xakascha | Naa çılnang alğıstapçam şirerni. |
| Tuvacha | Caa çıl-bile bayır çedirip or men. |
| Oltoycha | Slerdi cangı cılla utkup turum. |
| Shorcha | Naa çıl çakşı polzun. |
| Yoqutcha | Ehigini şanga cılınan eğerdeliibin. |
| Chuvashcha | Sene sul yaçepe salamlatap. |

| Eski Turkiy | O‘zbekcha | Turkcha | Turkmanc |
|---|---|---|---|
| ata | ota | ata | |
| ana | ona | anne/ana | ene |
| o‘gul | o‘gil | oğul | oğul |
| er(kek) | erkak | erkek | erkek |
| kyz | qiz | kız | gyz |
| kiši | kishi | kişi | kişi |
| kelin | kelin | gelin | geli:n |
| **Eski Turkiy** | **O‘zbekcha** | **Turkcha** | **Turkmanc** |
| jürek | yurak | yürek | ýürek |
| qan | qon | kan | ga:n |
| baš | bosh | baş | baş |
| qyl | qil | kıl | qyl |
| köz | ko‘z | göz | göz |
| kirpik | kiprik | kirpik | kirpik |
| qulqaq | quloq | kulak | gulak |
| burun | burun | burun | burun |
| qol | qo‘l | kol | gol |
| el(ig) | | el | el |

| | | | |
|---|---|---|---|
| barmak | barmoq | parmak | barmak |
| tyrnaq | tirnoq | tırnak | dyrnaq |
| tiz | tizza | diz | dy:z |
| baltyr | boldir | baldır | baldyr |
| adaq | oyoq | ayak | aýaq |
| qaryn | qorin | karın | garyn |
| **Eski Turkiy** | **O‘zbekcha** | **Turkcha** | **Turkmanc** |
| at | ot | at | at |
| siyir | sigir | sığır | sygyr |
| yt | it | it | it |
| balyq | baliq | balık | balyk |
| bit | bit | bit | bit |
| **Eski Turkiy** | **O‘zbekcha** | **Turkcha** | **Turkmanc** |
| ev | uy | ev | öý |
| otag | otoq | otağ | otaq |
| yol | yo‘l | yol | yo:l |
| köprüq | ko‘prik | köprü | köpri |
| oq | o‘q | ok | ok |

| Turkiy | O‘zbekcha | Turkcha | Turkmanc |
|---|---|---|---|
| uzun | uzun | uzun | uzyn |
| yany | yangi | yeni | yany |
| semiz | semiz | semiz | semiz |
| tolu | to‘la | dolu | do:ly |
| aq | oq | ak | ak |
| qara | qora | kara | gara |
| qyzyl | qizil | kızıl | gyzyl |
| kök | ko‘k | gök | gök |

| Eski Turkiy | O‘zbekcha | Turkcha | Turkmanc |
|---|---|---|---|
| bir | bir | bir | bir |
| eki | ikki | iki | iki |
| tört | to‘rt | dört | dö:rt |
| yeti | yetti | yedi | yedi |
| on | o‘n | on | o:n |
| yüz | yuz | yüz | yü:z |

| | | |
|---|---|---|
| Turkiy tillar | Bulgar guruhcha | Chuvash tili |
| | Qarluq guruhcha | O‘zbek tili |
| | | Uyg‘ur tili |
| | Qipchoq guruhcha | Boshqird tili |
| | | Qozoq tili |
| | | Qaraim tili |
| | | Qoraqalpoq tili |
| | | Qorachoy-Bolqor tili |
| | | Qo'miq tili |
| | | No‘g‘oy tili |
| | | Tatar tili |
| | O‘g‘uz guruhcha | Ozarbayjon tili |
| | | Gagauz tili |
| | | Turk tili |
| | | Turkman tili |
| | Qirg‘iz-qipchoq guruhcha | Oltoy tili |
| | | Qirg‘iz tili |
| | Uyg‘ur guruhcha | Tuva tili |
| | | Xakas tili |
| | | Shor tili |

**Yoqut**

**Sobiq SSSRdagi barcha Turkiy tillar uchun 20-yillar oʻrtalarida lotin grafikasi asosida alifbolar ishlab chiqildi va ular 1930 yilgacha ixtiyoriymajburiy tarzda ana shu yozuvga oʻtkazildi; 1938—40 yillarda esa ayni shu tartibda rus grafikasi asosidagi yozuvga oʻtkazildi. SSSR parchalanib ketgandan keyin 1991 yilda Ozarbayjon va Turkmanistonda, 1993 yilda Oʻzbekistonda lotin yozuviga asoslangan alifbo joriy etish haqida qaror qabul qilindi va bu qarorlar amalga oshirilmoqda. Turkiy tillarning oʻrganilishi haqida q. Turkiyshunoslik. [1].**